



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Maxmudov Jasur**

*Samarqand viloyati Samarqand shahar 59-IDTM o'qituvchisi*

### INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA INKLYUZIV MADANIYATNINING AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Maqola inklyuziv ta'limni tashkil etishda inklyuziv madaniyatning ahamiyati mavzusida yozilgan bo'lib, imkoniyati cheklangan bolalar bilan sog'lom bolalar o'rtasidagi munosabatlardagi to'siqlar diskirminatsiya qilinishi muhimligi **ko'rsatib berilgan.**

**Kalit so'zlar:** O'quvchi, inklyuziv ta'lim, diskirminatsiya, madaniyat, imkoniyati cheklangan.

**Annotation:** The article focuses on the importance of inclusive culture in the organization of inclusive education, highlighting the importance of discriminating against barriers in the relationship between children with disabilities and healthy children.

**Key words:** Student, inclusive education, discrimination, culture, disability.

UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabr PQ-4860-sonli qarorining "b" bandida shunday



takidlanadi: alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Tibbiy – ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi muassasasiga o'tkazish tartibi ko'rsatilgan.

Inklyuziv ta'lim inglizcha “**inclusive inclusion**” uyg'unlashmoq, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi. Imkoniyati cheklangan, nogironligi bo'lgan bolalar bilan sog'lom bolalarni birgalikda o'qitiladigan ta'lim jarayoni inklyuziv ta'lim hisoblanadi. Umumta'lim maktablarida uyg'unlashgan holda imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalarning birgalikda o'qitilishi tushuniladi. Bunda imkoniyati cheklangan bolalarni teng huquqliligi kafolatlanadi. Boshqalardan ajralib qolmagan holda birgalikda ijtimoiy hayotdagi o'rinlarini topib olishlari ko'zda tutiladi. Ota-onalaridan uzoqlashmagan holda o'zi yashaydigan hududda tahsil olish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida 2022-yil 5-aprel kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda ham inklyuziv ta'limga alohida to'xtalib o'tildi.

Alohida ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan Davlat ta'lim muassasalari uchun 2011-yil 13-sentabrda Vazirlar Mahkamasining 256-sonli qarori qabul qilinib, maxsus ta'lim muassasalari uchun dastur ishlab chiqilgan edi, mazkur hujjat endilikda o'z kuchini yo'qotdi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun Davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalar uchun 2021-yil 12-oktabr kuni Vazirlar Mahkamasining 638-sonli qarori qabul qilindi va nizom ishlab chiqildi. Ushbu nizom jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning ta'lim tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Mazkur qarorning 3 –bobida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini tashkil etish tartibi keltirib o'tilgan. Unda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, ularning ixtisoslashuviga muvofiq quyidagi (I - VIII) turlarga bo'linadi.

**I** - Kar (eshitmaydigan) bolalar uchun maktab – internati

**II** - Zaif eshitadigan va keyinchalik kar bo'lgan bolalar uchun maktab – internati

**III** - Ko'zi ojiz ( ko'r) bolalar uchun maktab –internati

**IV** - Zaif ko'radigan va keyinchalik ko'r bo'lgan bolalar uchun maktab – internat

**V** - Nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun maktab- internati

**VI** – Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab – internati

**VII** - Psixik rivojlanishi sust bo'lgan bolalar uchun maktab – internati

**VIII** - Aqli zaif bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab – internati

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim xalqaro miqyosida dolzarb bo'lib, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarni qamrab olgan holda jamiyatning teng a'zosi sifatida ko'rgan holda ta'lim berish masalalari amalga oshirilmoqda. Xalqaro bolalar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar YUNESEF tashkiloti bilan hamkorlikda bu borada ko'plab, samarali ishlar amalga oshirilmoqda,



ammo bu borada rivojlangan mamlakatlarda ham qator muammolar mavjud ekanligi sir emas.

Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalar bilan sog'lom bolalar o'rtasidagi munosabatlardagi to'siqlar diskriminatsiya qilinishi o'ta muhim hisoblanadi. Diskriminatsiya deganda nimani tushunamiz? Diskriminatsiya bu- kishilarning dini, irqi, millati, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, terisining rangi, turli jismoniy kamchiliklari bo'lishidan qat'iy nazar teng huquq va burchlarga ega bo'lgan holda kamsitilishlardan holi bo'lishligi tushuniladi.

Diskriminatsiyani taminlashda nafaqat ta'lim muassassalari o'qituvchilari va xodimlarining o'rni muhim, balki mahalla, mahallada yashovchi boshqa fuqarolarning oila va oilalar muhitining o'rni beqiyosdir.

Inklyuziv ta'limni joriy etishda eng avvalo jamiyatimizning barcha oilalarida to'g'ri tarbiyaning tashkil etilishi, atrof-muhitga va boshqalarga bo'lgan munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yilishi eng ustuvor vazifa hisoblanadi. Ta'lim muassassasi mahalla va oilaning diskriminatsiyalashga o'rni beqiyos deb bejizga aytilmagan. Inklyuziv ta'limni tashkil etishda ana shu tarmoqlarning ahamiyati katta hisoblanadi. Inklyuziv ta'limni tashkil etishdan oldin diskriminatsiya muhitini kengroq qilib yoki boshqacharoq qilib takidlaydigan bo'lsak inklyuziv madaniyatni shakllantirishimiz nihoyatda muhimdir.

Inklyuziv madaniyat bu- imkoniyati cheklangan, jismoniy kamchiligi bo'lgan keyingi paytda takidlanadigan (nogironligi bo'lgan shaxslar) bilan boshqa sog'lom kishilarning u yoki bu munosabatlarga kirishishi, teng munosabatda bo'lishi, kamsitishlardan va imkoniyatlarning farqli tomonlarini sezdirishdan holiligi tushuniladi.

Bugungi kunda yurtimizning turli hududlarida ayniqsa chekka hududlarida diskriminatsiya va inklyuziv madaniyatni shakllantirishni keng yo'lga qo'yish zarurdir, nafaqat ta'lim muassassalarida balki imkoniyati cheklangan bolaning o'zi tug'ulgan oilasida bunday muammolarning borligiga o'tkazilgan tadqiqotlarimiz, so'rovnomalar va ota-onalar bilan suhbatlarimiz orqali guvohi bo'lganmiz. Birga yashaydigan oiladagi sog'lom bo'lgan boshqa oila a'zolarining jismoniy kamchiligi (nogironligi bo'lgan shaxsga) bor bolaga nisbatan munosabati to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Uning akasi, ukasi yoki opa-singlisining hatti-harakatlari inklyuziv madaniyatga zid bo'lganligi oqibatida bolada ruhiy tushkunlik psixologik- depressiya holatlarini keltirib chiqaradi.

Turli imkoniyati cheklangan bolalar bilan so'rovnomalar o'tkazganimizda, suhbat jarayonlarida bolaning yolg'izlanib qolganligi, tushkin ahvolda qolib ketganligini va bunga oilaviy muhitning ta'siri katta bo'lganligini tushunib yetdik. Mazkur bolalarni imkoniyati cheklangan maxsus ta'lim muassasalariga jalb etib, keyingi holat bilan solishtirilganda ruhiy holatidagi ijobiy o'zgarishlarni kuzatdik. Maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilar o'zi kabi tengdoshlari oldida o'zlarini erkin his qilgan holda kamsitishsiz, o'z nuqsonlaridan uyalmasdan, ko'tarinki ruhiy holatlarda ta'lim olib kelmoqda.

Dastlab farzandini o'zi yashaydigan umumta'lim maktabiga qo'yib, keyinchalik afsuslangan holda maxsus ta'lim muassasasiga olib kelib, farzandidagi



boshqa bir kasallikni ya'ni ikkilamchi kasallikni paydo qilib qo'yganligini, nafaqat ta'limdan balki fikrlash va dunyoqarashini ham butunlay past ahvolga kelib qolganligining guvohi bo'ldik.

Yuqorida takidlaganimizdek bunda inklyuziv madaniyatning yetishmasligi, hattoki o'z oilasida imkoniyati cheklangan oila a'zosiga qanday munosabatda bo'lish ko'nikmasi mavjud emasligini ko'rishimiz mumkin.

Bunga ko'zi ojizlar yoki zaif ko'ruvchi ta'lim muassasalarini kabi boshqa maxsus ta'lim muassasalarini ham misol qilish mumkin. Aqliy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan tayanch maktablarni, eshitishi va tilida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ham shu va shunga o'xshash holatlarga guvoh bo'lamiz.

Lekin shuni ham ta'kidlash joizki, kasb hunar kollejlarda, akademik litseylarda, ayniqsa oliy o'quv yurtlarida, o'quv kurslarida inklyuziv madaniyatni ko'rishimiz mumkin. Albatta bu ulkan natija bermoqda.

Endi tasavvur qilaylik, 7-8 yosh atrofidagi bola... imkoniyati cheklangan. Ko'rishda yoki sensor harakatlari buzulgan, aqliy rivojlanishda muammosi bor, gapirishda va eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaga shu yoshdagi sog'lom bo'lgan tengdoshlarining munosabati qanday bo'ladi? Ijobiy bo'lishi mushkul. To'g'ri ular hali bola. Inklyuziv madaniyat ularda hali tarkib topmagan. Demak biz kattalarning vazifamiz yoshlarda inklyuziv madaniyatni shakllantirishdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. R.Sh. Shoaxmedova "Maxsus va inklyuziv ta'lim" Toshkent – 2011
2. G.Berdiyeva. A.Shomaxmudova "Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish usullari" metodik qo'llanmasi. Toshkent – 2015
3. R.M. Po'latova "Maxsus pedagogika" Toshkent – 2018

Lex.uz

Arxiv.uz